

## LINGVISTIK GLOBALLASHUV VA INGLIZ TILINING GLOBAL KONTEKSTLARDA TRANSFORMATSIYASI

**Esirgapov Muhiddin Nizomiddinovich**

*Samarqand davlat chet tillari institute mustaqil tadqiqotchisi Tel: +998990733543*

*Email: muhiddinesirgapov@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola lingvistik globallashuv jarayonining ingliz tilining global miqyosda yoyilishi, funksional kengayishi va sotsiolingvistik transformatsiyasiga ko'rsatgan ta'sirini kompleks va ko'p qatlamli yondashuv asosida tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida ingliz tilining tarixiy shakllanish bosqichlari, kolonial kengayish davridan boshlab, XX asrdagi geosiyosiy kuchlar muvozanati va XXI asrdagi raqamli inqilobgacha bo'lgan davr, izchil ravishda yoritiladi. Shu bilan birga, tilning nazariy talqini doirasida "World Englishes" paradigmasi, ingliz tilining lingua franca sifatidagi funksional xususiyatlari hamda lingvistik imperializmga oid ilmiy munozaralar tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Mazkur nazariy yo'nalishlar ingliz tilining yagona, monolit tizim emas, balki turli madaniy, hududiy va sotsial kontekstlarda qayta shakllanayotgan pluritsentrik hodisa ekanini bildiradi. Shuningdek, maqolada ingliz tilining zamonaviy ta'lim siyosatiga, akademik mobilitetga va bilim ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri chuqur yoritib beriladi. Xususan, ko'plab davlatlarda oliy ta'limning ingliz tiliga o'tishi milliy tillarning ilmiy diskursdagi maqomiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani muhokama qilinadi. Bundan tashqari, raqamli kommunikatsiya platformalari, global iqtisodiy munosabatlar va migratsiya oqimlari ingliz tilining yangi gibril shakllarini yuzaga keltirayotgani ilmiy dalillar va real misollar asosida asoslab beriladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan qisqartmalar, kod-almashuv (code-switching) va translingval amaliyotlar ingliz tilining standart me'yoriy chegaralarini yumshatayotganini ko'rsatadi. Natijada ingliz tili faqat aloqa vositasi emas, balki global identitet va ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan maqola ingliz tilining globallashuv sharoitidagi o'рни ikki tomonlama xarakterga ega ekanini, ya'ni u bir vaqtning o'zida ham imkoniyatlar eshigini ochuvchi resurs, ham ierarxiya va notenglikni kuchaytiruvchi omil bo'lishi mumkinligini ilmiy asoslab beradi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvistik globallashuv, global ingliz tili, World Englishes, lingua franca, lingvistik imperializm, ko'p tillilik, til siyosati.*

### KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylandi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro savdo hajmining kengayishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati hamda global migratsiya oqimlari kuhayganligi natijasida dunyo o'zaro bog'langan murakkab tizimga aylandi. Mazkur

jarayon til sohasiga ham o'z tasirini ta'sir ko'rsatdi, chunki til har qanday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqaning muhim vositasidir.

Globalashuv tushunchasi ijtimoiy nazariyada jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarning intensivlashuvi sifatida baholanadi [Giddens, 1990]. Biroq lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, globalashuv ayrim tillarning global miqyosda ustunlikka erishishi, boshqalarining esa periferik maqomga tushishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda ingliz tili markaziy o'rin egalladi.

Hozirgi kunda ingliz tili global miqyosdagi kommunikatsiya tizimining eng muhim elementlaridan biriga aylangan. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, xalqaro ilmiy maqolalarning 80 foizdan ortig'i ingliz tilida nashr etiladi, internet kontentining katta qismi aynan shu tilda yaratiladi va xalqaro biznes hujjatlarining aksariyati ingliz tilida olib boriladi. Bundan tashqari, ingliz tili xalqaro aviatsiya, dengizchilik, diplomatik aloqalar hamda ko'plab xalqaro tashkilotlar faoliyatida asosiy ishchi til sifatida qo'llaniladi. Natijada ingliz tili oddiy milliy til maqomidan ancha yuqori darajaga ko'tarilib, global kommunikativ infratuzilmaning muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko'rish mumkin. Bu holat ingliz tilining xalqaro miqyosda bilim almashinuvi, ilmiy hamkorlik va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini osonlashtiruvchi universal mexanizm sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ingliz tilining globalashuvi bir xil va barqaror shaklda kechayotgan jarayon emas. Aksincha, u turli mintaqalarda turlicha ijtimoiy, madaniy va lingvistik sharoitlarga moslashib bormoqda. Ingliz tili mahalliy tillar bilan faol o'zaro ta'sirga kirishib, leksik, fonetik va grammatik jihatdan yangi xususiyatlarni o'zlashtirmoqda. Natijada dunyoning turli hududlarida ingliz tilining o'ziga xos variantlari shakllanmoqda. Masalan, Osiyo, Afrika va boshqa mintaqalarda ingliz tilining mahalliy til elementlari bilan uyg'unlashgan shakllari paydo bo'lib, ular kommunikativ ehtiyojlarga moslashgan yangi lingvistik tizimlarni yuzaga keltirmoqda.

Demak, lingvistik globalashuv jarayoni ingliz tilining faqat geografik jihatdan kengayishini emas, balki uning strukturaviy va funksional jihatdan transformatsiyasini ham anglatadi. Ingliz tili global aloqa vositasi sifatida bir tomondan umumiy kommunikativ platformani ta'minlasa, ikkinchi tomondan turli madaniy va til muhitlarida yangi shakllar va identifikatsiya elementlarini yuzaga keltiruvchi dinamik til fenomeniga aylanmoqda.

Ingliz tilining global maqomga erishishi tasodifiy hodisa emas, balki murakkab tarixiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlar natijasidir. XVI–XIX asrlarda Britaniya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ingliz tilining Yevropa hududidan tashqariga chiqib, Shimoliy Amerika, Hindiston, Afrika va Karib havzasiga keng yoyilishiga zamin yaratdi [Crystal, 2003]. Mustamlaka hududlarida ingliz tili avvalo boshqaruv va savdo tili sifatida joriy qilingan bo'lsa, keyinchalik u ta'lim tizimining

asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Bu jarayon tilni oddiy kommunikativ vositadan ko'ra ijtimoiy va siyosiy hokimiyat quroligaga aylantirdi.

Masalan, Hindistonda 1835-yildagi Macaulay Memorandumi ingliz tilini ta'lim tizimining markaziga olib chiqdi va uni ma'muriy boshqaruv tili sifatida yanada mustahkamladi. Natijada ingliz tilini bilish ijtimoiy mobillik, davlat xizmatiga kirish va intellektual elita safiga qo'shilish uchun zarur shartlardan biriga aylandi. Shu tariqa ingliz tili hind jamiyatida nafaqat aloqa vositasi, balki mavqe va ijtimoiy kapital ramziga aylandi. Hozirgi kunda ham Hindistonda ingliz tili millionlab insonlar uchun ikkinchi til bo'lib xizmat qiladi va mamlakatning ko'p tilli tuzilmasida muhim integrativ ahamiyatga ega..

XX asrga kelib ingliz tilining global mavqei yangi bosqichga siljidi. Bu jarayonda AQShning iqtisodiy va texnologik ustuvorligi hal qiluvchi omil bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh ilm-fan, innovatsiya va harbiy texnologiya sohalarida yetakchilik qildi, natijada ingliz tili xalqaro ilmiy hamkorlik va texnik terminologiyaning markaziy vositasiga aylandi. Shu bilan birga, ommaviy madaniyatning globallashuvi, Hollywood kino industriyasi, pop-musiqa, xalqaro brendlar va reklama mahsulotlari, ingliz tilining madaniy ta'sir ko'lamini kengaytirdi. Demak, ingliz tilining tarqalishii nafaqat siyosiy va iqtisodiy kuch bilan, balki madaniy joziba va media resurslari bilan ham mustahkamlandi.

Keyingi bosqichda esa raqamli inqilob ingliz tilining global ekspansiyasini yuqori darajada tezlashtirdi. Internetning dastlabki rivojlanish bosqichida onlayn kontentning katta qismi ingliz tilida bo'lganligi sababli, ingliz tili global raqamli muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Garchi bugungi kunda xitoy, ispan va boshqa tillarning ulushi ortgan bo'lsa-da, ingliz tili ilmiy ma'lumotlar bazalari, xalqaro platformalar va texnologik interfeyslarning eng muhim tili bo'lib qolmoqda. Shu tariqa ingliz tili global axborot infratuzilmasining ustuvor elementi sifatida shakllandi.

Biroq ingliz tilining global tarqalishi uning ichki bir xilligini saqlab qolmadi. Aksincha, turli ijtimoiy-madaniy muhitlarda u mahalliy tillar bilan o'zaro ta'sirga kirishib, yangi variantlarni yuzaga keltirdi. Kachru (1982) tomonidan taklif etilgan model ingliz tilining ichki doira (ona tili sifatida), tashqi doira (postkolonial jamiyatlar) va keng tarqalgan doira (xorijiy til sifatida) ko'rinishida tarqalishini tushuntiradi. Mazkur yondashuv ingliz tilining yagona markazdan boshqariladigan tizim emasligini, balki ko'p markazli va funksional nuqtai nazardan farqlanuvchi tizimga aylanganini ko'rsatadi.

Masalan, Nigeriya ingliz tilida mahalliy tillarning fonetik va leksik elementlari aniq namoyon bo'ladi. Singapur ingliz tili (Singlish) esa xitoy va malay tillari sintaksisidan ta'sirlangan. Hind ingliz tilida o'ziga xos intonatsiya va leksik birliklar mavjud bo'lib, ular milliy identitetni ko'rsatuvchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Bu hodisa ingliz tilining "standart" modeli haqidagi an'anaviy nazariyalarni

qayta ko'rib chiqishga undaydi. Jenkins (2009) ta'kidlaganidek, global muloqot jarayonida fonologik minimalizm, ya'ni o'zaro tushunarlilikni ta'minlovchi asosiy talaffuz elementlari muhim hisoblanadi. Demak, ingliz tili barqaror normativ tizimdan ko'ra funksional va moslashuvchan kommunikativ model sifatida rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, ingliz tilining global ustunligi tanqidiy qarashlarni ham yuzaga keltirdi. Phillipson (1992)ingliz tilining kengayishini lingvistik imperializm konsepsiyasi orqali izohlab, uni G'arbiy davlatlarning madaniy hukmronligining davomiy ifodasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, ingliz tili global tizimda ierarxiya yaratadi va mahalliy tillarning ijtimoiy mavqeini pasaytiradi. Masalan, ayrim Afrika davlatlarida ingliz tili rasmiy boshqaruv va oliy ta'lim tili bo'lsa-da, mahalliy tillar nisbatan cheklangan funksional doiraga ega. Bu esa ta'limga kirish imkoniyatlari va ijtimoiy tenglik masalalarini qiyinlashtiradi.

Biroq ayrim tadqiqotchilar ingliz tilining globallashtirishni bir tomonlama hukmronlik emas, balki o'zaro moslashuv va mahalliyashtirish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Pennycook (2007)ingliz tilining "glokalizatsiya" jarayoniga alohida urg'u berib, uning mahalliy kontekstlarda qayta talqin qilinishi va yangi identitet shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Demak, ingliz tili faqat hukmronlik vositasi emas, balki mahalliy madaniyatlar bilan o'zaro uyg'un ravishda yangilanayotgan dinamik tizimdir.

Bugungi kunda ingliz tili ko'pincha ona tili bo'lmagan so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot vositasi, ya'ni lingua franca sifatida ishlatiladi. Masalan, Xitoy va Braziliya kompaniyalari o'rtasidagi muloqot ingliz tilida olib borilishi mumkin, garchi tomonlarning hech biri ingliz tilini ona tili sifatida bilmasa ham. Bunday kontekstda ingliz tili qat'iy grammatik standartlarga emas, aksincha, kommunikativ samaradorlikka asoslanadi. Ingliz tilining lingua franca shaklida pragmatik moslashuv va soddalashtirilgan strukturalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, uchinchi shaxs birlik qo'shimchasining (-s) tushirib qoldirilishi muloqot samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bu esa ingliz tilining normativ emas, balki funksional modelga asoslanayotganini ko'rsatadi. . [Seidlhofer 2011]

Raqamli muloqot esa ingliz tilining yanada yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt platformalari va onlayn o'yinlar ingliz tilining qisqartmalar, emojilar va kod-almashish asosidagi variantlarini keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, o'zbek yoshlarining kundalik yozishmalarida "Bugun meeting bor" kabi aralash konstruktsiyalar uchraydi. Bu "translanguaging" jarayoni lingvistik globallashtirishning mikrodarajadagi ko'rinishi sifatida talqin qilinadi va til chegaralarining yanada moslashuvchanlashayotganini ifoda etadi.

Mazkur jarayonlar ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Ingliz tilini o'qitishda endilikda faqat britan yoki amerika standartiga asoslanish yetarli emas. Global kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo

muloqot ko'nikmalari va turli aksentlarni tushunish qobiliyati har doimgidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ko'p tillilik siyosati ham dolzarb masalaga aylangan. Ona tiliga asoslangan ta'lim modeli ham o'z o'rnida kognitiv rivojlanish va madaniy identitetni saqlash uchun muhim hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tilini rivojlantirish mahalliy tillarni siqib chiqarish orqali emas, balki qo'shimcha ko'p tillilik modeli asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, ingliz tilining global kengayishi tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liq, biroq uning zamonaviy rivojlanishi ko'p markazli, moslashuvchan hamda dinamik xarakter ega. Ingliz tili hozirgi paytda nafaqat global aloqa vositasi, balki ijtimoiy kapital, identitet va til siyosati bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lingvistik globallashtirish ingliz tilining global miqyosda kengayishiga olib kelgan bo'lsa-da, bu kengayish oddiy geografik tarqalish bilan cheklanib qolmasdan, uning ichki strukturaviy, funksional va pragmatik transformatsiyasi bilan birga kechmoqda.

Bugungi kunda ingliz tili ko'p markazli (pluritsentrik), moslashuvchan va doimiy o'zgaruvchan tizimga aylangan bo'lib, u turli hududiy variantlar, ijtimoiy guruhlar va professional diskurslar orqali qaytaishlanmoqda. Bu jarayon ingliz tilining global aloqa vositasi sifatidagi ahamiyatini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning me'yoriy "standart" tushunchasini ham qayta ko'rib chiqishga majbur etmoqda.

Biroq ingliz tilining bu global mavqei har doim ham bir xil natijalarni bermaydi. Bir tomondan, u xalqaro hamkorlik, ilmiy almashinuv, iqtisodiy integratsiya va madaniyatlararo muloqot uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratmoqda.

Ikkinchi tomondan esa, ingliz tiliga yuqori darajada egalik qilish ijtimoiy kapitalning muhim ko'rsatkichiga aylangani sababli, til ierarxiyasi va ijtimoiy tengsizlik masalalarini ham kuchaytirmoqda.

Natijada ingliz tilini bilish imkoniyati bilan uni bilmaslik o'rtasidagi farq, ayniqsa, ta'lim, mehnat bozori va global mobilitetda sezilarli tafovutlarni keltirib chiqarmoqda. Kelajak istiqboliga nazar tashlaydigan bo'lsak, ingliz tili yanada ko'p variantli, transmilliy va madaniyatlararo moslashuvchan shaklga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va global migratsiya jarayonlarining intensivlashuvi bu transformatsiyani yanada tezlashtiradi.

Shu bois lingvistik globallashtirishni faqat tilning kengayishi yoki hukmronligi sifatida emas, balki kuch, identitet, iqtisod, siyosat va madaniyat o'zaro kesishgan murakkab va dinamik fenomen sifatida o'rganish lozim.

Aynan shunday yondashuvgina ingliz tilining global muhitdagi ko'p qirrali tabiatini to'liq anglash imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Giddens, A. (1990). *The Consequences of Modernity*. Stanford University Press.
2. Pennycook, A. (2007). *Global Englishes and Transcultural Flows*. Routledge.
3. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Kachru, B. B. (1992). *The Other Tongue: English across Cultures* (2nd ed.). University of Illinois Press.
5. Kachru, B. B. (1982). *The Other Tongue and World Englishes framework*.
6. Jenkins, J. (2009). *World Englishes: A Resource Book for Students* (2nd ed.). Routledge.
7. Phillipson, R. (1992). *Linguistic Imperialism*. Oxford University Press.
8. Seidlhofer, B. (2011). *Understanding English as a Lingua Franca*. Oxford University Press.